

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari.....	285
Sh.Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi faoliyati	293
K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion (the example of Jizzakh)	297

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.Mirzaeva, N.Y.Usarova A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and uzbek folklore literature	301
A.G.Sabirdinov Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik	307
G'.O.Xolbutayev Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati	310
O.Barziyev, F.Baxtiyor Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi	317
S.A.Xodjayev Folklor namunalari uchlik timsoliga asoslangan ramzlar	323
H.K.Sabirov, B.A.Giёsova Движение джадидизм и узбекская детская литература	326
G.Ch.Muratova G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri	329

TILSHUNOSLIK

N.R.Gafurova O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari	333
Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova O'zbek va ingliz tillarida iboralarning qo'llanishi.....	338
Y.E.Ro'ziboyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning lingvakulturologik xususiyatlari.....	341
N.R.Gafurova Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari	344
M.G.Khoshimov Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical clause as an invariant type of syntactic unit	347
D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida	354
M.M.Aslonov The educational process and content of educational activities in the "House of Bukhara education"	358
Z.V.Alimova Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida	362
G.R.Mamadaliyeva Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili.....	367
P.Sh.Kaxramonova Badiiy asar tili va ekolingvistika	373
H.U.Davlatova Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar	376
H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari	380
Z.V.Alimova, M.Rasulova	

MILLIY MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

FACTORS OF NATIONAL COMMUNICATION COMPETENCE FORMATION

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИОННОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИDavlatova Hulkaroy Uktamovna¹¹Andijon davlat chet tillar instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası o'qituvchisi, PhDAbdurahmonova Hulkaroy²²Andijon davlat chet tillar instituti ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi.**Annotatsiya**

Mazkur kichik tadqiqotda milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari hamda shu sohaga oid olimlarning ilmiy izlanishlari bayon etilgan. Maqolaning asosiy maqsadi, tilshunoslikda milliy muloqot kompetensiyasi shakllantirish borasida dunyo olimlarining fikrlari, mulohazalarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu ishda solishtirish, taqqoslash metodlaridan foydalanildi va natijada muloqotning tarixiy rivojidan boshlab, hozirgi kungacha izlanish olib brogan allomalarni izlanishlaridan namunalar keltirildi. Yakuniy so'z o'rnida esa, dunyo olimlarini izlanishlarini o'rganish asnosida, o'zimizning fikr-mulohazalarimiz keltirilgan.

Abstract

This small study describes factors in the development of national communicative competence and the scientific research of scientists associated with this area. The main purpose of the article is to analyze the views and opinions of world scientists regarding the formation of national communicative competence in linguistics. In this work, comparison and contrast methods were used, as a result, examples of research by scientists who conducted research from the historical development of communication to the present day are given. Instead of a final word, we present our own opinion while studying the research of world scientists.

Аннотация

В этом небольшом исследовании описаны факторы формирования национальной коммуникативной компетентности и научные исследования ученых, связанные с этой областью. Основная цель статьи - проанализировать мнения и мнения мировых ученых относительно формирования национальной коммуникативной компетентности в языкознании. В данной работе были использованы методы сравнения и сопоставления, в результате приведены примеры исследований ученых, проводивших исследования от исторического развития коммуникации до наших дней. Вместо заключительного слова мы излагаем собственное мнение в ходе изучения исследований мировых ученых.

Kalit so'zlar: muloqot, ijtimoiy, nazariy, fikr, vosita, shaxs, jamiyat, rivojlanish bosqichi, til, ong.

Ключевые слова: общение, социальное, теоретическое, мысль, орудие, человек, общество, стадия развития, язык, сознание.

Key words: communication, social, theoretical, thought, tool, person, society, stage of development, language, consciousness.

KIRISH

Har bir millat uchun o'z ona tili haqiqiy xazina hisoblanadi. Til inson dunyosi va madaniyatini aks ettiradi. Tilning eng muhim vazifasi shundaki, u madaniyatni saqlab qoladi va uni avloddan avlodga yetkazadi. Shuning uchun ham til shaxsiyat, milliy fe'l-atvor, xalq, millat shakllanishida juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun til va madaniyatning o'zaro ta'siri masalasi mutaxassislar – kulturologlar, tilshunoslar, faylasuflar uchun ilmiy qiziqish doirasiga kiradi. Albatta, madaniyatlarning o'zaro ta'siri har doim bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Jahon tarixiga nazar tashlasak, ushbu tabiiy jarayon odatda ular bilan aloqada bo'lgan madaniyatlarning o'zaro boyishiga olib keladi. Ammo zamonaviy ommaviy axborot vositalari va aloqa tufayli bir madaniyatning ikkinchisiga ta'siri juda tez seziladi.

Bola jamiyatning a'zosiga aylana borar ekan, o'ziga xos milliy qadriyatlar ta'siri uning nutqiga ham singib boradi. Shaxslar muloqot vositasi orqali o'zaro munosabat o'rnatar ekanlar, nutqiy faoliyat insonlargagina xos bo'lgan muloqotning asosiy manbasidir.[7] Jamiyatning kichik a'zosi o'z ehtiyojlarini insoniy munosabatlar hamda nutqiy muloqot natijasidagina qondirish mumkin bo'lgan sharoitda voyaga yetadi.[8]

TILSHUNOSLIK

Psixologik nuqtai nazardan olib qaralganda, ba'zi bolalar yoshlik chog'laridan tabiatan kam gap bo'ladilar. Bola kam gapirsa-da, unga gapirilayotgan hamma so'zlarni tushunadi. Bolalarning so'zga chechan va gapdon bo'lishlari bevosita ularni o'rab turgan ijtimoiy-lisoniy muhitga bog'liq. Bolalar nutqidagi milliy so'zlarni hech kim maxsus o'rgatmaydi, bola qaysi millat vakili bo'lsa, yashab turgan ijtimoiy muhiti ularning nutqida aks etadi. O'zbek, ingliz, fransuz, xitoy, kim bo'lishidan qat'iy nazar, o'z ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib milliylikiga oid so'zlarni muloqot jarayonida qo'llaydi. Har bir millatga xos milliylikni bildiruvchi so'zlarning kelib chiqishi bevosita tarixga bog'liq. Masalan: o'zbek bolalari uchun bosh va ustki kiyimlarni ifodalovchi *do'ppi*, *salla*, *cho'girma*, *to'n*, *chopon* kabi milliylikni bildiruvchi so'zlarini hech kim o'rgatmaydi, milliylikni anglatuvchi bunday so'zlar oiladagi ijtimoiylashuv va muloqot jarayonida bolalarning nutqiga singib ketadi.

Yuqorida aytib o'tilgan milliy-madaniy markerlangan so'zlarning tarixi biz uchun ozmi-ko'pmi tanish. Xuddi shunday ingliz, xitoy, fransuzlarning milliylikni ifodalovchi so'zlarning kelib chiqishi va nutqda faol qo'llanilishi ularning nutqida qiyinchilik tug'dirmaydi. G.Iskandarovning ko'rsatishicha, xitoylik bolalar juda yoshligidan boshlab o'zlarining milliylikni anglatuvchi so'zlarni yaxshi biladilar: *guruch*, *soya suti* kabi yegulik nomlarini; *qizil fonuslar*, *tilla baliqlar va ajdarho tasviri*, *ovqat yeyish uchun mo'ljallangan tayoqchalar* kabi artefaktlar nomlarini. Fransuz bolalari uchun *xo'roz-mag'rurlik belgisi*, *Eyfel minorasi*, *egzagon olti burchagi*, *pishloq*, *Marianna byusti*, *Mersel'eza madhiyasi*, *uch rangli bayroq*, *vino*, *shior (ozodlik, tenglik, birodarlik)* va ko'plab milliylikni bildiruvchi so'zlar ular uchun begona emas.[9]

Dunyoda ayrim millatlar borki, ularning o'z ona tilida murojaat qilinsagina faol muloqotga kirishadi. Masalan, Fransiyaga borib ingliz tilida gaplashishga harakat qilsak, o'zlarini xuddi tushunmayotganga o'xshatishadi. Aslida, ular ingliz tilini juda yaxshi bilishadi. Lekin ular bilan muloqotga kirishish jarayonida o'z ona tilida murojaat qilishingizni xohlashadi. Fransuzlar o'z ona tilini juda hurmat qilishadi va sof fransuz tilida gaplashish orqali ular milliy muloqot madaniyatini saqlab qolishadi. Islandiya xalqi va hukumati o'ziga xos madaniyatni saqlab qolish uchun boshqa tillarni ona tiliga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun, Island tili barcha zamonaviy Yevropa tillaridan eng toza til hisoblanadi.

Ingliz oilasidagi bolalar uchun "*Cardigan*", "*balaclava*", "*Wellies*" kabi milliy so'zlari ham ular uchun notanish emas. "*Cardigan*", "*balaclava*", "*Wellies* [10] so'zlarini o'zbek tiliga tarjima qilganimizda – "*Kardigan*"(kamzul, nimcha), "*balaklav*", "*rezina etiklar*"[10] degan ma'noni anglatadi. (Ingliz xalqida bugungi kundalik kiyimlarning ko'plari azaliy an'anaga ega. 1853-1856 yillardagi urush paytida Qrimdagi juda sovuq qish ularga kardigan va balaklav nomlarini bergan. Chunki Lord (1854) Kardigan va Balaklava jangida yengil (asosiy qo'shinning qismini) brigadani boshqargan. Kardigan yengil tugmachali iliq, yungli matodan tikilgan kalta kamzul, Balaklava esa yungli matodan tikilgan shlyapa. Yana bir ingliz askari Vellington o'z ismini kiyib yurgan etigiga beradi va bu hozirgacha saqlanib qolgan. Uni inglizlar qisqargan nomi bilan ishlatishadi ya'ni "*Wellies*" – "*Kauchuk etik*")

Mulozamat britaniyaliklar madaniyatining muhim qismi va muloqot bezagi hisoblanadi. Inglizlarning milliy nutqida "*please*" - *iltimos*, "*thank you*" - *rahmat* va "*sorry*" - *uzr* so'zlari doimo qo'llanadi va bu so'zlarni qo'llash inglizlar bolalarining nutqiga ham ko'chgan.

Hozirgi vaqtda Angliyaning milliy muloqotida (understatement) - "yumshatish, sayqal berish" degan tushuncha mavjud.[11] Bundan ko'rinadiki, inglizlar hatto jahli chiqib, achchiqlanib tursa ham muloqotdagi sherigiga nisbatan muloyim, yumshoq munosabatda bo'ladilar va ular "yumshatish uslubi"ga amal qiladilar. Ularda jiddiy falokat, fojeali holatlar sodir bo'lganda ham, o'ta bosiqlik, muloyimlik bilan munosabat bildirish kuzatilishi mumkin. Inglizlar muloqot jarayonida juda samimiy bo'ladilar va ular bilan aloqaga kirishish mobaynida xushyorlik talab etiladi. Shu o'rinda J.Mayksning fikrlarini keltiramiz: Muloqot jarayonida ingliz kishisi "It's a bit wet out there, I might join you later" – "Bugun biroz yomg'irli, sal kechroq oldingizga borarman" deydi, aslida "It's absolutely pissing it down, consequently, I'm not leaving the house today unless it's on fire!" – "Qattiq jala yog'yapti, men bugun uydan hech qaerga chiqmoqchi emasman, chiqishim mumkin, qachonki, uyimga o't ketsa" degan ma'noga to'g'ri keladi. "Your english is somewhat unorthodox" – "Sizning ingliz tilingiz biroz noodatiy ekan" gapining asl ma'nosi "Sizning ingliz tilini bilish darajangiz bir tiyanga qimmat ekan" ma'nosida qo'llanadi.[11]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Britaniyada ikki nafargacha farzandi bor oilalar baxtli hisoblanadilar, uchinchi farzand tug'ilishi ular uchun baxt olib kelmaydi.[12]

Amerikalik ota-onalar, farzandlariga dunyoni kuzatish orqali ularning qiziqishlarini oshirishga harakat qilishadi. Bu esa ularning farzand tarbiyasidagi maxsus usulidir.[15] Yevropalik inglizlar intellektual ongini qadrlashadi va farzandlariga kitob o'rganish, o'rgangan kitobi bo'yicha savol berishsa, bu aqlning belgisi deb hisoblashadi. Italiyalik ota-onalar ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarni qadrlashadi va bu shaxslararo muloqot ko'nikmalarini namoyish etadi, deb hisoblashadi. Gollandiyalik ota-onalar esa farzandlariga tarbiya jarayonida mustaqil fikrlashga va har bir narsaga e'tiborli bo'lishga, ayniqsa, bashorat qilishni qadrlashadi; ularning nazarida, suhbatdoshiga biror mavzu yuzasidan savol berish salbiy xatti-harakat bo'lib, mustaqillikni yo'qligini anglatadi.[5] Mahalliy amerikaliklar uchun bola tarbiyasidagi yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bolalar uchun o'z shaxsiyatini, jamiyati va madaniy tarixi haqida ma'lumotlarni bilish, tarixiy hikoyalarni o'qish va o'rganishdir. Mahalliy afsonalar va folklor ko'pincha hayvonlar va narsalar orqali aks ettiriladi. Har bir narsaning ruhi borligi va hurmatga loyiq ekanligiga hikoyalarni o'qish orqali ularning ishonchi yana bir bor tasdiqlanadi. Ushbu hikoyalar mahalliy tilni saqlashga yordam beradi va milliy qadriyatlarni, madaniy tarixni aks ettirishga katta ahamiyatga ega hisoblanadi.[5]

Mahalliy amerikaliklar tomonidan konsejo "Consejo" so'zi ko'p qo'llanilib, bu hikoyalarning tavsifiy shakli, ayni vaziyatda bolaga to'g'ridan to'g'ri nima qilish kerakligini aytib berish o'rniga, ota-onaga shunga o'xshash vaziyat haqida hikoya qiladi. Mohiyatan didaktik hikoya bo'lgan *konsejo* bolaga o'zi uchun to'g'ridan to'g'ri qaror qabul qilmasdan, qarorning oqibatlarini ko'rishga yordam berish uchun yaratilgan; u bolani qat'iyatli va mustaqil bo'lishga o'rgatadi, shu bilan birga ba'zi tavsifiyalar ham beradi.[6]

Navaxo oilalaridagi farzand tarbiyasining muhim jihati bolani hamma narsani "hurmat qilish" muhimligiga qaratilganidir. "Hurmat" bu dunyodagi boshqa narsalar va odamlar bilan bo'lgan munosabatlarning ahamiyatini anglashdir. Bolalar asosan ushbu tushuncha haqida ota-onalar va boshqa oila a'zolari o'rtasidagi og'zaki bo'lmagan muloqot orqali bilib olishadi.[14] Masalan: bolalar erta yoshdanoq tongda yugurish mashqlarini bajarishga o'rgatiladi, tabiiy holki, bola erta turishni va yugurishni yoqtirmaydi, lekin ota-onalar bolani bevosita jalb qilishga, jamiyatning faol a'zosi bo'lishga undaydilar.[15]

O'zbek milliy muloqoti jarayonida xalqimizning milliy an'analari va urf-odatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. "Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi".[3]

Milliy muomala madaniyati har bir o'zbek xonadoniga xos fazilat. Muloqot nutqi, nutq odobi, muomala nutqi, bularning barchasi insonning ma'naviyatini, ma'rifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga bog'liq.

Ajdodlarimiz kuyunchaklik bilan milliy nutqiy muloqot, ya'ni tilimizni saqlab qolish yo'lida sermahsul ijod qilishgan. Shunday mutafakkir yozuvchilardan biri Abdulla Avloniydir. O'zbek milliy madaniyati va adabiyotini asrab-avaylash uchun Abdulla Avloniy til masalasiga katta e'tibor beradi, tilni xalqning mavjudlik sharti sifatida talqin qiladi: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir". U o'zbek millatining taraqqiyoti va ravnaqi yo'lida ko'plab asarlarning muallifi hisoblanadi. Shoir o'z asarlarida insonlarning ona yurtlariga qanday sodiq bo'lishligini, milliylikni, madaniyatini tilini asrab avaylashlikni ta'kidlab aytgan. "Hifzi lison" deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamakni aytilur". "Turkiy guliston yoxud axloh" asari boshidan, oxirigacha Avloniyning insonparvarlik fikrlaridan iborat.[1] U hamma narsadan avval yurt manfaatini o'ylab ish yuritishni, odamlarga xizmat qo'rsatishni asosiy o'ringa qo'yadi. "Hifzi lison" deb har bir millat uz ona tilini va adabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'hotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan - kun unutmak va yo'qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur".[1]

TILSHUNOSLIK

So'zlashish jarayonida tildan qanday foydalanish, insonlarni ko'nglidagi fikrlarni til orqali nutqda bayon qilishni va suhbatdoshga tushunarli tarzda yetkazishni Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday bayon qiladi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur ..." mazmuni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir. "So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma". Mazmuni («So'zni ko'nglingda pishitib olmaguncha, so'zlama, ko'nglingda bo'lgan har qanday fikrni ham ayta berma»).[15]

O'zbek tilining badiiy nutqida shoh va shoir, sarkarda, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning o'zni beqiyosdir. Shoirning nazmi va "Boburnoma"si o'zbek tili nutqining yorqin timsollaridandir. Bobur farzandlariga va davlat a'yonlariga hamma birday tushunadigan tarzda yozishni maslahat beradi. Shu o'rinda, o'g'li Humoyunga yozgan bir xatida, birovga yuborilgan maktubda xat yozuvchining o'zi bir necha bor o'qib ko'rishiga, uning ravonligiga, so'zlarning ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks etgiranligiga ishonch hosil qilganidan so'ng jo'natishga chaqiradi.

Bundan ko'rinadiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga milliy tilni mukammal o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini chuqur bilish, ma'noli, barcha uchun tushunarli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki, tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor berish, go'zal va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinni ishlatish vazifalarini qo'yadilar. Navoiy ta'kidlaganidek: "Til shuncha sharaf bilan nutqning qurolidir..."[2]

Shu o'rinda milliy til va nutq haqidagi fikrimizni keltirishni joiz, deb bildik. Til va uning hosilasi bo'lgan nutq kishilik jamiyatining muhim aloqa vositalaridan biri hisoblanadi. Nutqda insonning milliyliigi, madaniyati, odobi, bilimi, xulq-atvori aks etadi. Nutq – bu muloqot qilish, hissiyotlarni ifodalash, fikrlarni shakllantirish, dunyoni bilish, uning harakatlarini rejalashtirish va b. uchun tildan foydalanadigan kishining faoliyati.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Kaykovus "Qobusnoma" asarida ham nutq va uning turlari, nutqning hosil bo'lish yo'llari batafsil yoritilgan va shunday bayon qilingan: "Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi".[16]

Dunyo tan olgan ko'plab tilshunos olimlarning ishlarini o'rganishimiz natijasida, til milliy muloqot madaniyatning eng muhim toifalaridan biri ekanligini, inson dunyoqarashi aynan til orqali shakllanishi va ifodalanishini angladik. Til milliy madaniyatning tabiiy yashash joyidir. Madaniyat har bir millatning mohiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, til nafaqat vosita, balki insonning hayotiy tajribasini belgilaydigan inson shakllanadigan va yashaydigan muhitdir.

Ijtimoiy muhit nutq me'yorlarini, nutq an'analarini, stereotiplarini, shuningdek, tilning elementlari va tuzilishini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Lisoniy ijtimoiylashuv – bu jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun shaxsni kommunikativ vosita sifatida o'zlashtirish jarayonidir. Lisoniy ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning butun hayoti davomida, ayniqsa, bolalik va o'spirinlik davrida intensiv ravishda davom etadi. Lisoniy ijtimoiylashuv dunyoni bilishga, insonning har tamonlama rivojlanishiga va jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Taniqli rus psixologi A.N.Leontyev lisoniy ijtimoiylashuvni bosqichlarga bo'lib o'rgangan.[8] Ulardan asosiysi boshlang'ich (bolaning lisoniy ijtimoiylashuvi) bosqichdir. Navbatdagisi oraliq (o'spirinning lisoniy ijtimoiylashuvi) bosqich va so'ngisi barqaror (kattalar shaxsining lisoniy ijtimoiylashuvi) bosqich ekanligini aytib o'tgan.

Yuqoridagi nomlari tilga olingan G'arb va Sharq olimlarining ishlarini o'rganar ekanmiz, ularning nazariy jihatdan yoritilgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga, chaqaloqlarning nutqini va tana harakatlarini kuzatishga harakat qildik.

Chaqaloqlar ikki oylik bo'lganlaridan so'ng qo'llarini qimirlatish va turli shakldagi tovushlarni chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 3-4 oyga to'lganlarida ota-onasi, birga yashovchi va boshqa insonlar bilan ko'z va tabassum orqali aloqa qilishni boshlaydilar va o'sha odamning yuz ifodasini kuzatadilar. Agar chaqaloqqa nisbatan erkalatuvchi so'zlar bilan murojaat qilinsa, ularning yuz ifodasida kulgi alomatlar seziladi. Aksincha, do'q-po'pisaga o'xshash so'zlar qo'llansa, (ha seni qara-yu, yig'lamasdan birpas jim yotsang bo'lmaydimi) ularning yuzlarida yig'i alomatlar bilina boshlaydi, lablarini bujmaytirib yig'lashni boshlaydilar. Asta-sekinlik bilan shu davrdan boshlab quvnoq va kulgiga o'xshash tovushlarni chiqara boshlaydilar. Taxminan 5 oylikdan boshlab tovush hosil bo'lishini va artikulyatsiya harakatlarini boshqarish qobiliyati rivojlanadi, turli qiyqiriq tovushlar chiqarishni boshlaydilar.

Chaqaloqlar 6 oylik bo'lganlaridan boshlab atrofdagilarga ko'proq e'tibor berishni boshlaydilar va asta-sekin kattalar e'tiborini o'zlariga jalb qilish uchun imo-ishoralar, qarashlar, tovushlardan foydalanadilar. 10 oyliklardan boshlab inson nutq tovushlariga o'xshash tovushlarni baqiriqlar, chinqiriqlar orqali chiqara boshlaydilar. Ular ilk so'zlarni 9-12 oyliklarida ayta boshlaydilar va bir yoshga to'lganlarida bir necha so'zlarni va qisqa iboralarni tushunishni boshlaydilar. Shu yoshdan boshlab, kichkintoylar oddiy ko'rsatmalarni tushunishlari va ularga amal qilishlari mumkin. Masalan: yoshini so'rasalar, ko'rsatkich barmog'ini ko'rsatish orqali 1 yoshga to'lganini ifodalaydilar, shu bilan birga, ular uchun sevimli bo'lgan uy hayvonlaridan tovuqlar, jo'jalarning sonini so'ralganda ham, barmoqlari orqali ifodalaydilar. Yaqin insonlari (onasi, buvisi, opasi, akasi) tomonidan salomlashishni o'rgatilganda, garchi ular to'liq gapira olmasalar-da, o'ng qo'lini uzatib ko'rishishni o'rganadilar yoki, aksincha, xayrlashganda qo'llarini, asosan barmoqlarini silkitish harakatni ko'rsatadilar.

Ularning og'zaki nutqi bir yoshda noaniq bo'lib, nutq tovushlarining deyarli barchasini o'z ichiga oladi. So'z boyligi doimiy ravishda oshib boradi. Bu yoshdagi chaqaloqlar o'rtasida ham farqlar mavjud bo'lib, ba'zilar ko'plab so'zlarni gapirishni boshlaydilar, boshqalari esa hali ham dastlabki so'zlarni aytishga qiynalayotgan bo'ladilar. Masalan: 1 yoshli Foziljon "dada", "amma", "choy" so'zlarini bemalol ayta oladi, 1 yoshli Abror esa yuqoridagi so'zlarni to'liq ayta olmaydi. "Dada-dad, dad", "choy-umma". Bola 1, 1,5 yoshga yetganda, endi yo'lga yura boshlaganda, aka-opasini, ota-onasini odiga kelib "meni ko'taring" so'zini ayta olmay "xo'ppa" deb ikkala qo'lini tepaga ko'tarib, qo'l harakati orqali fikrini ifodalashga urinadi.

2 yoshli bolalar oddiy ko'rsatmalarni tushuna oladilar. Ular o'z ismlarini ayta oladilar va ikki-uchta so'zlardan iborat jummalardan foydalana oladilar.

3 yoshli bolalar oddiy hikoyalarni, takliflar, ko'rsatmalarni tushunishlari mumkin. So'roq gaplar, buyruqlar va inkor jummalardan foydalanadilar. Bu yoshda bolalarning nutqi to'liq va aniq tushunarli bo'ladi. Shu bilan birga, savollar berishni boshlaydilar. Birgalikda kitoblar o'qishni, rasmlarga ishora qilib, kitobdagi voqealar haqida suhbatlashishni uddalaydilar.

4-5 yoshli bolalarning nutqi tobora kattalar nutqiga o'xshay boshlaydi. Bu yoshda bolalar o'z tasavvurlarini tengdoshlariga va kattalarga aytishni yaxshi ko'radilar. Ayniqsa, bu yoshda ko'p savol beradigan, sergap, mahmadona bo'ladilar. Sababi bu yoshdagi bolalarda miya faoliyati va nutq teng amalga oshadi. Ya'ni bola o'z fikrlarini yashira olmaydi. Masalan, 4 yoshli Omonboy nutqiga e'tibor bering:

– *Barakalla, azamat, sen juda esli bola ekansan, - deb moy xidi kelib turgan kattakon kafti bilan Omonboyning boshini silab qo'ydi. Omonboy haqiqatan ham azamat va haqiqatan ham esli bola edi. Shuning uchun ham shosha-pisha:*

– *Amaki, men-chi kechasi yotayotganimda kindigimga yog' surtib yotaman! – deb axborot berdi yana.*

– *Mana buni chinakam qahramonlik desa bo'ladi! – novcha amaki bu gal Omonboyning yelkasiga qoqib qo'ydi, - suvni qaerdan ichasizlar?*

– *Bog'imizda hovuz bor, -negadir hovliqib dedi Omonboy, -orqamdan yuravering... Undan keyin-chi, amaki men ovqat yeyishdan oldin qo'limni yuvib kelaman.*

– *Voy-bo'y, sen chindan ham ajoyib bola chiqib qolding-ku!*

– *Undan keyin-chi. Amaki men ovqat yeganimda labimni chapillatmayman.*

– *Ofarin[18;6].*

6 yoshga kelib bolalarning talaffuzi standart tilga mos, tushunarli va xatosiz bo'ladi. Ular belgilarni va obyektlarni aniq nomlay oladilar. Bolalarning fonetik ongi rivojlanadi, ular so'zlar alohida tovushlardan iborat ekanligini anglaydilar, so'zlar orasidagi fonetik farqlarni aniqlaydilar va nutq tovushlarini birlashtirish, olib tashlashni biladilar. Shuningdek qo'shish, sanashni o'rganadilar. Shu yoshdan boshlab interaktiv ko'nikmalarni egallashni, nutqni tinglashga, aytilganlar to'g'risida savollar berishga, savollarga javob berishga, galma-gal gapirishga va ko'rsatmalarga muvofiq harakat qiladilar. Ularni o'ylashdan zavqlanadilar va o'ylari bo'yicha savollar beradilar, maqtanchoq bo'ladilar.

Xudoyberdi To'xtaboev ijodida aks etgan 6 yoshli Davronboy nutqidan:

– *Menga qara, yaxshi bola, sen ham mening o'g'limga o'xshab savollarni yog'dirib tashlashga usta ekansan... Ozgina suv bergin.*

TILSHUNOSLIK

- Suv o'zingizgami yoki mashinagami?
- Obbo...O'zingayam, mashinamayam...

To'g'ri, Davronboy deganlari chindan ham sersavol bola edi. Savol bermayman, desa ham bergisi kelaveradi. Hozir ham shunaqa bo'ldi. Hech narsa haqida so'ramayman deb turuvdi, to'satdan: **“Mashinangiz KRAZmi yoki samosvalmi?”** – deganini o'zi ham bilmay qoldi.

- KRAZ, - degan javob qaytardi eshik orqasidan.[18;5]

Bu suhbat jarayonida Davronboy ko'p savol berish bilan birgalikda, obyektini aniq nomlay olayapti.

Ota-onalar va tarbiyachilar, murabbiylar bolalar bilan o'zaro aloqada bo'lganlarida, ularni nutqini to'g'ri shakllantirishga, so'zlarni to'g'ri talaffuziga e'tiborli bo'lishlari va har bir savollariga erinmasdan javob berishlari kerak.

Bizga ma'lumki, chaqaloqlarning birinchi aloqa vositasi – bu yig'lashdir. Bunga javoban ota-onalar va murabbiylar bolani ko'taradilar, unga gapiradilar, erkalatadilar, ovqatlantirish orqali ularni tinchlantiradilar. Biz chaqaloqlarni yig'lashdan tashqari, tana harakati, qo'l mimikalari va imo-ishoralar bilan ham muloqotga kirishgan jarayonlarini qo'rishimiz mumkin. Nutq tovushlarini o'stirish uchun chaqaloqlarga o'yinchog'ini ko'rsatib uni nomini to'liq aytish kerak, garchi ular gapira olmasalarda, o'yinchoqni nomi ularning xotirasida qoladi. Masalan: o'g'il bolalar uchun mashinachani ko'rsatib, “didit” emas, mashina deb aytish kerak. Qizlar uchun o'zbek milliy ertak qahramonlaridan bo'lgan Zumrad qo'g'irchoqni ko'rsatib, nomini to'liq aytish kerak (qizlar ulg'aygan sari, bir ikki so'zlarni qo'shib aytib borilsa nutqi tezroq shakllana boradi; **Zumrad odobli qiz, Zumrad aqlli, chaqqon qiz**) Bu ham bolalarning go'dakligidan milliy nutqini rivojlantirishning bir usulidir. Bolalar taqlid va o'rnak orqali tilni tez o'rganadilar. Ular bilan suhbatlashish (ertak aytish) jarayonida qisqa va sodda so'z-gaplardan foydalansak, nutqimizda turli xil so'zlarni qo'llasak (Zumradni tasvirlashda tasniflovchi so'zni turli ko'rinishda aytishimiz mumkin: *chiroyli, aqlli, odobli*; kiyimlarini tasvirlashda *do'ppisi bor, atlas ko'ylagi yarashgan, sochlari uzun*) maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inson so'zlarni va tovushlarni talaffuz qilish ko'nikmalarini faqat jamiyatda egallaydi. O'sib borayotgan bolalar va atrofdagi dunyo o'rtasidagi munosabatlar tobora farqlanib va murakkablashib borar ekan, bir vaqtning o'zida bir xil shaxsga tegishli bo'lgan ijtimoiy jamoalarning soni ko'payadi. Bir, ikki yoshgacha bola faqat ota-onasining farzandi va uning ijtimoiy rollaridan biridir. Keyin ular bolalar bog'chasi boradi va boshqa jamiyatning a'zosiga aylanadi.

Bu amakining o'zi ham qiziq ekan - da, nega deb so'rab o'tiribdi-ya, axir hamma narsa ravshan – ku! Bo'ldi – bo'ldi bo'lganda, yuk tashuvchi mashinalar Omonvoyga, yengil mashinalar Davronboyga taqsimlangan[18;5]. Bu misoldagi **“Bo'ldi-bo'ldi”** iborasi orqali o'zbek milliy urf odatiga aylangan, to'ydan oldingi o'tkaziladigan unashtiruv marosimi nazarda tutilyapti. Bolalarga bu so'zni kimdir maxsus o'rgatmaydi. Ota-onasi va katta yoshdagilarning suhbat jarayonidan yoki teleekrandan ularning tiliga ham ko'chadi.

Men botirman, to'g'rimi, opa, - deb so'rarkan Soraxondan.

To'g'ri, hammamiz botirmiz, - gapga qo'shilarkan Humoyun [18;50].

Ma'lum vaqtdan so'ng bolalar, ijtimoiylashuv jarayonining boshqa guruhlariga qo'shiladi: o'zi tengqur qarindoshlarning va qo'shnilarning bolalari, bog'cha davri, maktabdagi sinfdoshlari, sport to'garaklarida va qo'shimcha darslardagi ijtimoiylashuv jarayonining faol a'zosiga aylanadi. Asta-sekin ijtimoiy guruhlarning safi kengayib boradi. Maktabni tamomlagandan so'ng harbiy xizmat, universitet, ish joyi kabi ijtimoiy guruhlarning a'zosi bo'ladi. U nafaqat ma'lum guruhni tashkil etadigan odamlarning birgalikda faoliyatida ishtirok etadi, balki ularning turli rollarni qanday ijro etishlarini ham kuzatadi. Shuning uchun u voyaga yetgandan so'ng, turli xil ijtimoiy rollar, shu jumladan, o'zi hech qachon bajarmagan rollari haqidagi g'oyani shakllantiradi. Bularning barchasi tilni o'zlashtirishga bevosita ta'sir qiladi.[4]

XULOSA

Qisqa qilib aytganda, nutqiy qobiliyat muomala ko'nikmalarining tarkibiy qismlari sifatida grammatik va leksik vositalardan foydalangan holda operatsiyalarni avtomatlashtirilgan bajarishdir.

Nutq kompetensiyasi – bu nutq mashg'ulotining ma'lum bir tarkibiy qismi, shu jumladan lingvistik, kommunikativ va uslubiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan xususiyatlarining (bilim, qobiliyat va ko'nikmalar, faoliyat usullari) to'plamidir. Nutq kompetensiyasini shakllantirish so'z boyligining

kengayishi tufayli yuzaga keladi; nutqning grammatik tuzilishini rivojlantirish, muloqotga kirishuvchilarning so'z boyligini oshirish orqali shakllanadi.

Ijtimoiylashuv ma'lum bir ijtimoiy muhit nutqini, shu muhitga xos nutq xatti-harakatining me'yorlarini o'zlashtirmasdan amalga oshmaydi. Til ham ijtimoiylashuvning tarkibiy qismi ham uning vositasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т. 1992. – Б. 3-9.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб. – Т. 1983. – Б. 72.
3. Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, мафкура. 1-ж. – Т.:Ўзбекистон, 1996 – Б. 80.
4. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социалингвистика / Российский государственный гуманитарный университет. – 2-е издание. – Юрайт, 2001. – 337.
5. Bolin Inge. Growing Up in a Culture of Respect: Child Rearing in Highland Peru. Austin: University of Texas Press, 2006. Project MUSE. Web. 13 May. 2014. <<http://muse.jhu.edu/>>. [page needed]
6. Delgado-Gaitan Concha (1994). "Consejos: The Power of Cultural Narratives". *Anthropology & Education Quarterly*. 25 (3): 298–316. doi:10.1525/aeq.1994.25.3.04x0146p. JSTOR 3195848.
7. Ольшанский В.Б. Социализация //Философская энциклопедия. Т. 5. М.: Сов. энциклопедия, 1970. – С.66-67.
8. Леонтьев А.Н. Психология общения. – Тарту, 1974. – С. 218.
9. Искандарова Г. Болалар мулоқот хулқининг гендер ва лингвокультурологик хусусиятлари // УзМУ хабарлари. 2015 № 12. – Б. 200.
10. National Costume of England - National Dress - Project Britain <http://projectbritain.com/costume.html>
11. Mikes George. How To Be An Alien. Wingate, London / NY, 1946. <http://f2.org/humour/howalien.html>
12. Robert K. Thomas. 1958. "Cherokee Values and World View" Unpublished MS, University of North Carolina Available at: http://works.bepress.com/robert_thomas/40
13. Growing Up in a Culture of Respect: Child Rearing in Highland Peru. University of Texas Press. pp. 6367. ISBN 978-0-292-71298-0. Bolin, Inge (2006).
14. Jump up to: a b c Source: Chisholm, J.S. (1996). Learning "respect for everything": Navajo images of development. *Images of childhood*, 167–183.
15. Paradise, Ruth; Rogoff, Barbara. "Side by Side: Learning by Observing and Pitching In". *Journal of the Society of Psychological Anthropology*: 102–37.
16. Қунгуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Т. 1992.
17. Кайковус. Қобуснома. – Т. 1968. – Б. 29.
18. Тўхтабоев Х. Пешонасига телевизор ёпиштирилган боланинг саргузаштлари. – Тошкент, 2019. – Б. 5.6.50
19. H.D Uktamovna. (2021).OPPORTUNITIES FOR ENGLISH-SPEAKING VOICES IN THE SPEECH OF CHILDREN OF THE FIRST SCHOOL AGE. *Problems and solutions of advanced scientific research* 1 (1), 226-229
20. H.Davlatova.(2022).BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI. *Scientific journal of the Fergana State University*, 51-51
21. Davlatova Khulkaroy.(2023).THE INFLUENCE OF THE GENDER FACTOR ON THE FORMATION OF A COMMUNICATION IN THE FAMILY. *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (11), 294-297
22. H.U Davlatova.(2021) SPEECH EDUCATION OF CHILDREN IN UZBEK FAMILIES. *International Journal of World Languages* 1 (3)
23. X.U Давлатова.(2019) The variation of teaching kids to greeting in Uzbekistan and Great Britain. *Молодой ученый*, 212-213
24. H. U Davlatova. (2019) THE HISTORY OF THE STUDY OF PSYCHOLINGUISTICS. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 96.